

## AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING KUTUBXONALARDAGI AHAMIYATI

**R. Jumanazarova**

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

**S.Qo'chqorova**

Qarshi davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kutubxona-axborot faliyatida kommunikatsiyalarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kommunikatsiya, axborot, kutubxona, noshirlik, xizmat ko'rsatish, foydalanuvchi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение коммуникаций в библиотечно-информационной деятельности.

**Ключевые слова:** Связь, информация, библиотека, издательство, сервис, пользователь.

**Annotation:** This article discusses the importance of communications in library-information activities.

**Keywords:** Communication, information, library, publishing, service, user.

Eng avvalo, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo'jizakor kuchdir. Qolaversa, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Kitob irodani toblaydi, boshqaruv mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, huquq-tartibot organlari uchun yetuk kadrlar tayyorlanadigan ta'lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu yo'nalishda tegishli huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash, tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borish, bu masalaga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha keyingi paytda birmuncha ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash lozim.

Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, noshirlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, yurtimizda sog'lom raqobatga asoslangan bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bunda ko'zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi:

kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

kitob mahsulotlari bo'yicha davlat buyurtmasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish;

jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha davlat buyurtmalari berish, ularni zarur nusxalarda yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralari belgilash;

axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning "Ma'naviyat xonalari"ni o'quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma'rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislarini, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

O'zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta'minlash;

qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini tashkil etish choralari to'g'risida tadbirlar rejasi loyahasini tayyorlash va amalga oshirish;

mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va xarid qilish imkonini beradigan eReader elektron o'quv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Joylarda amalga oshirilayotgan bunday ishlarning natijasida, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etilayotganligini, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila", "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazilayotganligini ta'kidlash lozim.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabi jarayonlarni takomillashtirish ham bugungi kunda turgan asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, "XXI asr axborot texnologiyalari asri". Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida aholi uchun qo'shimcha qulayliklar va shart-sharoitlar yaratildi hamda telekommunikatsiya xizmatlari, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha

ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shu bilan birga, ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, aholining zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda to'liq foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, bino va inshootlarni loyihalashtirish jarayonida telekommunikatsiya infratuzilmasining inobatga olinishi kabi muhim ishlarni muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Hududlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor loyihalarning manzilli ro'yxatlarini shakllantirish maqsadlari va tartibi o'rganilishi natijasida, axborotlashtirish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ustuvor loyihalarning hududiy manzilli ro'yxatlarini shakllantirishni moliyalashtirish yoki loyihalarni amalga oshirish uchun jalb etiladigan mablag'larni samarali taqsimlash hamda ulardan foydalanishni ta'minlaydigan amaliy mexanizmni joriy qilish;

davlat organlarining manfaatlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng muhim va ustuvor idoralararo loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

“Elektron hukumat” tizimini shakllantirish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini va yuridik hamda jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari sifatini oshirishni ta'minlaydigan loyihalarni birinchi navbatda moliyalashtirish va boshqa jarayonlarning ishi ijobiy hal qilinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, jahon axborot resurslari va ulardan keng foydalanish maqsadida, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholini sifatli mobil aloqa hamda Internet tarmog'idan keng polosali foydalanishni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Axborot-kutubxona markazlari va jahonning jamiyat tomonidan tan olingan eng yirik nashriyotlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarilishini qo'llab-uvvatlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, joylarda, ayniqsa, olis joylarda elektron davlat xizmatlarini taqdim etish tizimini yanada kengaytirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarini qo'llash sohasida aholi savodxonligini oshirish, pochta aloqasi sohasini va pochta aloqasi milliy operatori bo'lgan “O'zbekiston pochta” AJ faoliyatini takomillashtirishga ham alohida kata e'tibor qaratilib, joylarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, jahon axborot resurslaridan keng kitobxonlarning foydalanishi, ehtiyojning ortib borish holatlari ham kitobxonlarga qaratilayotgan keng ko'lamli e'tiborning bir na'munasi desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axborot-kutubxona texnologiyasi: o'quv qo'llanma/ tuzuvchilar: Yu. O. Mannonov, K. G. Mavlyanov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Toshkent madaniyat kolleji. – Toshkent: Noshir, 2013. – 288 b.
2. Karimov U. Avtomatlashtirilgan kutubxona, Kutubxonashunoslik va axborot tizimlari ta'limyo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma), (hammualliflar M.A. Raxmatullayev va boshq.).-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2003.-266 b.
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.